

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida “Giyohvandlik moddalarining, psixotrop dori vositalarining noqonuniy muomalasi va diniy ekstremistik oqimlar g‘oyalari ta’siriga tushib qolish holatlarining oldini olish” mavzularida o‘tkazilgan profilaktik tadbir

B A Y O N N O M A S I

2025-yil 21 noyabr

Istiqbol binosi 201-xona

Raislik qiluvchi: N. Qodirov - Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori

Kotib: F.Ismagilova - universitet katta tyutori,

Qatnashdilar: IIV Akademiyasi magistratura tinglovchisi, IIV huzuridagi Tergov departamenti bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik Sharipov Shoxrux Shodieovich, R.Mansurbayev –TXVU rektori maslahatchisi, Sh.Kurbanova - madaniyat va ijodkorlik markazi mutahasissi, 14 nafar ishchi xodim va 100 nafar talaba yoshlar

KUN TARTIBI:

1. Giyohvandlik moddalarining, psixotrop dori vositalarining noqonuniy muomalasi.
2. Diniy ekstremistik oqimlar g‘oyalari ta’siriga tushib qolish holatlarining oldini olish to‘g‘risida.

2025-yil 21-noyabr kuni Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida “Giyohvandlik moddalarining, psixotrop dori vositalarining noqonuniy muomalasi va diniy ekstremistik oqimlar g‘oyalari ta’siriga tushib qolish holatlarining oldini olish” mavzularida profilaktik tadbirida IIV Akademiyasi magistratura tinglovchisi, IIV huzuridagi Tergov kafedrası bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik Sharipov Shoxrux Shodieovich ishtirok etdi. Ushbu tadbirida asosiy e’tibor yoshlarning huquqiy ongi va mas’uliyatini oshirish, ularni sog‘lom hayotga undash hamda turli salbiy illatlardan ogohlantirishga qaratildi. Tadbirga TXVU Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori N.Kadirov raislik qildi. Raislik qiluvchi yigilganlarni yig‘ilish ishtirokchilari va kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirdi va o‘z so‘zida ta’lim muassasalarida huquqbuzarlik va giyohvandlikka qarshi tizimli kurashni kuchaytirish, yoshlar o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom muhitni ta’minlash muhim ekanligini ta’kidladi. Shuningdek, muassasa miqyosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, kuzatuv mexanizmlari va tarbiyaviy ishlar haqida qisqacha ma’lumot berdi.



Shundan so'ng so'z IIV Akademiyasi magistratura tinglovchisi, IIV huzuridagi Tergov departamenti bo'lim boshlig'i, podpolkovnik Sharipov Shoxrux Shodievichga berildi.



Tadbirda ma'ruzachi podpolkovnik **Sharipov Shoxrux Shodievich** ushbu mavzuga doir asosiy muammoli jihatlarni yoritib berdi. U ma'ruza davomida:

- giyohvand moddalarning zararli oqibatlari,
- yoshlar o'rtasida uchrayotgan huquqbuzarliklar sabablari,
- radikal g'oyalar tarqalish mexanizmlari,
- jinoyatlarning oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar haqida to'xtalib o'tdi.



Ma'ruzani yanada samarali yetkazish maqsadida **maxsus tayyorlangan slaydlar va videoroliklar** namoyish etildi. Ular orqali:

- giyohvandlik vositalarining tasnifi,
- psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoiy holatlar statistikasi,
- ekstremistik oqimlar tomonidan qo'llaniladigan psixologik usullar,
- ularning ta'siriga tushmaslik bo'yicha tavsiyalar ko'rgazmali tarzda talabalarga tushuntirildi.

Vizual materiallar tadbirning ta'sirchanligini oshirib, mavzuni osonroq qabul qilishga yordam berdi.

Shuningdek Sh.Sharipov ma'ruzasi davomida bugungi kunda talaba-yoshlar uchun davlatimiz etakchisi tomonidan barcha sharoitlar joriy etilganligi, lekin shunga qaramay yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning turli ko'rinishidagi huquqbuzarliklarni sodir etilayotganligi giyohvandlik, diniy ekstremistik oqimlar g'oyalari ta'siriga tushib qolish bu achinarli holat ekanligi haqida kuyinib garirdi. Ayniqsa, bu holatlarning oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba-yoshlar o'rtasida sodir etilayotganligi jamoatchilik tomonidan muhokamalarga sabab bo'layotganligi, talaba-yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish yuzasidan turli ma'naviy-ma'rifiy, sport kabi tadbir va ko'rik tanlovlar tashkil etilayotganligi, yoshlarning o'z iqtidorlarini namoyish etishga qaratilganligi, bundan talabalar to'laqonli foydalansalar maqsadga muvofiq bo'lar edi"- degan fikrlarni bildirdi.

Shundan so'ng raislik qiluvchi navbatni talabalar bilan mavzu yuzasidan berilgan savol-javoblarga berdi. Talabalar tomonidan berilgan savollarga mehmonlar tegishli javoblar berdilar. Uchrashuv yoshlar ongida huquqiy madaniyatni mustahkamlash, giyohvandlikka qarshi immunitetni kuchaytirish va ekstremistik g'oyalardan ogohlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.



Yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olgan holda

QAROR QILINDI:

1. Universitetda muntazam ravishda ma'ruza, seminar va davra suhbatlari tashkil etilib, zararli diniy oqimlarning belgilarini tanish, internetda uchraydigan shubhali g'oyalarni ajratish bo'yicha treninglar davom ettirilsin.
2. Talabalarga ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali tarqaladigan ekstremistik mazmundagi axborotlarni aniqlash, ularga nisbatan tanqidiy yondashuvni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha o'quv materiallari taqdim etilsin.
3. Universitet psixologlari tomonidan talabalar bilan individual va guruhli suhbatlar o'tkazilib, ularning ijtimoiy-psixologik holati muntazam monitoring qilinsin.
4. Diniy oqimlar ta'siriga tushish ehtimolini kamaytirish maqsadida ota-onalar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, ularning farzandlari bilan ishlashdagi ogohligi oshirilsin.
5. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan tizimli hamkorlik yo'lga qo'yish.
6. Talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy, sport va ko'ngilli loyihalar kengaytirilib, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish orqali zararli g'oyalarga nisbatan immunitet kuchaytirilsin.
7. TXVUda tahsil oluvchi talaba yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida turli tanlov va musobaqalarni doimiy o'tkazib borishga erishilsin.
8. Targ'ibot ishlari uchun ijtimoiy tarmoqlarda videoroliklar, maqolalar joylashtirish yo'lga qo'yilsin.

Yig'ilish raisi:

N.Kadirov

Kotib:

F.Ismagilova